



**MIKROMOLIYAVIY XIZMATLAR HAMDA ULARNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10533808>

Pardayeva Zulfizar Alimovna

Buxgalteriya hisobi kafedrasida dotsenti

Toshkent moliya instituti

pardayevazulfizar978@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1465-6548

ANNOTATSIYA

Maqolada tijorat banklarida mikromoliyaviy xizmatlarni tashkil etish tartibi va uning joriy holati, tijorat banklarida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirishga doir amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda ularning oldingi yillarga nisbatan o'zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Shunugdek, o'tgan va joriy yillarda tijorat banklar mikromoliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda yuzaga kelgan muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing, mikromoliyalash, nobank kredit tashkilotlari, lizing, mikromoliya tashkilot, asosiy foiz stavka, kredit siyosati, moliya bozori, lombard.

**МИКРОФИНАНСОВЫЕ УСЛУГИ И НАПРАВЛЕНИЯ ИХ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Пардаева Зульфизар Алимовна

доцент кафедры бухгалтерский учет

Ташкентский финансовый институт

pardayevazulfizar978@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1465-6548

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются порядок организации микрофинансового обслуживания в коммерческих банках и его современное состояние, реализуемые меры по совершенствованию микрофинансового обслуживания в коммерческих банках и тенденции их изменения по сравнению с предыдущими годами. Кроме того, выявлены проблемы, возникшие при



оказании микрофинансовых услуг коммерческими банками в прошлом и текущем годах, и даны рекомендации по их устранению.

Ключевые слова

Микрокредит, микрозаем, микролизинг, микрофинансирование, небанковские кредитные организации, лизинг, микрофинансовая организация, базовая процентная ставка, кредитная политика, финансовый рынок, ломбард.

MICROFINANCIAL SERVICES AND DIRECTIONS FOR THEIR IMPROVEMENT

Pardayeva Zulfizar Alimovna

Accounting department

Tashkent institute of finance

pardayevazulfizar978@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1465-6548

ABSTRACT

In the article analyzes the procedure for organizing microfinance services in commercial banks and its current state, the measures implemented to improve microfinance services in commercial banks, and their trends of change compared to previous years. In addition, the problems that have arisen in the provision of microfinance services by commercial banks in the past and current years have been identified and recommendations for their elimination have been made.

Key words

Microcredit, microloan, microleasing, microfinancing, non-bank credit organizations, leasing, microfinance organization, basic interest rate, credit policy, financial market, pawn shop

Kirish.

Mikromoliyaviy xizmatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning muhim vositasi, aholining kam daromadli qatlamlari turmush farovonligini yanada oshirishga imkon beruvchi moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Mamlakatimizda mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirishga va sifatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish staregiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli

Farmonida bank xizmatlari ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan yetarli darajada xizmat ko'rsatilmaydigan (past daromadli jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) qatlamning bazaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishni nazarda tutadi. Shunisi ahamiyatliki, ushbu strategiyada yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o'zaro to'ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish bo'yicha olib boriladigan ishlar belgilab berilgan [1]. 2021 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar jami 166 240.9 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagisidan 39033.4 mlrd so'mga ko'pdir [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mikromoliyaviy xizmatlar bozori - bu mamlakat miqiyosidagi mikromoliyaviy xizmatlarga ehtiyoji bo'lgan tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tomonidan mikromoliyaviy mablag'lar yoki xizmatlar ko'rsatish yig'indisidir. Mikromoliyaviy xizmatlar bozori faoliyatini rivojlantirishning alohida nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar bozori tushunchasiga O.I.Lavrushin quyidagicha fikr bildirgan: "Kredit resurslari bozori - bu shunday bozorki, u yerda yangi pullar yaratiladi va iqtisodiyotning barcha sektoridagi pul resurslarga bo'lgan talabini qondirishga yordam berishi bilan bir qatorda mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni bartaraf etadi" [3].

Sh.Xakimov shunday yozadi: "Mikromoliyalash-bu moliyaviy barqaror bo'lmagan fuqarolar yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarni o'z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash yoki kichik tadbirkorligini rivojlantirish uchun ularga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonidir va u quyidagi jarayonlarni rivojlanishiga olib keladi[4]:

- zarur bo'lgan pul resurslarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradi;
- tadbirkorlik faoliyatini kengaytiradi, ayniqsa xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantiradi;
- ayollarni iqtisodiy faollikka jalb qiladi;
- mahalliy ishlab chiqarishga ko'maklashadi;
- kambag'allikni kamaytirib, ijtimoiy muammolarni hal qiladi;



• iqtisodiyotni real sektori jarayoniga iqtisodiy nochor aholini jalb qiladi va yangi ish o'rinlarini yaratadi;

• moliya bozorida yangi xizmat turlarini yaratilishiga zamin yaratadi” .

Shu o'rinda mikromoliyaviy xizmatlar bozori tushunchasiga yaqindan yondashadigan bo'lsak, mikromoliyaviy xizmatlar bozori deganda kichik, mikro darajadagi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'lsa ham, u keng qamrovli tushunchadir va uni quyidagicha ta'rifladik: “Mikromoliyaviy xizmatlar bozori – bu mamlakat miqyosidagi mikromoliyaviy xizmatlarga ehtiyoji bo'lgan tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tomonidan mikromoliyaviy mablag'lar yoki xizmatlar ko'rsatish yig'indisidir”.


D.Tajibayeva o'zining “Kredit munosabatlari tizimida mikrokreditlash” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida mikrokreditlashning nazariy-uslubiy hamda me'yoriy-huquqiy asoslarini, O'zbekistonda rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq qilgan[5]. Lekin u asosiy e'tiborini nobank kredit muassasalarining mikrokreditlash amaliyotiga qaratgan. Bundan tashqari, kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlashni alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil qilmagan.

A.Vaxabov o'zining “Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda bank tizimining o'rni” mavzusidagi ma'ruzasida kichik biznes sub'ektlariga qishloq joylarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonalarini va firmalarini tashkil etish maqsadida banklar tomonidan berilgan investitsion kreditlarning foiz stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan bonifikatsiya qilishni taklif qilgan[6].

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda tijorat banklari va bankdan tashqari kredit tashkilotlari tomonidan ajratiladigan mikrokreditlarning ta'minoti sifatida kredit qaytarilmasligi xatarini sug'urtalashda sug'urta polisini qo'llash amaliyotini kengaytirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, jumladan, kasb-hunar bilim yurtlari bitiruvchilariga berilgan tijorat banklari kreditlari bo'yicha ta'minot sifatida jismoniy shaxslarning mol-mulkini garovga olish amaliyoti keng joriy qilindi.

2023-yil 1-yanvar holatiga respublikamizda 34 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 11 tasi davlat ulishi mavjud banklar, 15 tasi aktsiyadorlik - tijorat banki, 3 tasi xususiy aktsiyadorlik tijorat banki va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Ushbu banklarning respublika hududlarida 9057 ta filiali samarali faoliyat ko'rsatmoqda. (1-rasm)



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan banklar tarkibi, 2023-yil 1-yanvar holatiga

Tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2023-yilning 1-mart holatiga ko'ra, 2022-yildagiga nisbatan 29 foizga oshib qariyb 561,1 trln. so'mni tashkil etdi.

1-jadval.

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)*

Ko'rsatkichlar nomi	01.03.22 y			01.03.23 y			Nomin al o'sishi, foizda	Haqiqiy o'sishi (devalva t-siyani hisobga olmagan holda foizda)
	jami	shundan xorijiy valyutada	ulushi foizda	jami	shunda n xorijiy valyuta da	ulushi foizda		
Bank aktivlari, jami	436 834	208 251	48%	561 822	267 371	48%	29%	26%
Kredit qo'yilmalari jami	327 180	161 347	49%	397 637	186 796	47%	22%	19%
Jalb qilingan jami depozitlar	148 350	57 134	39%	210 652	79 966	38%	42%	40%
Jami kapital	71 832	348	0,5%	81 582	362	0,4%	14%	14%

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti www.cbu.uz

So'ngi yillarda mamlakat tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

Shu jumladan, tijorat banklari kredit qo'yilmalarining umumiy hajmi 2023-yilda 22 foizga oshib, 2023-yilning 1 mart holatiga 397,6 trln. so'mni tashkil etdi.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

2-jadval.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi (mlrd so'mda)*

Ko'rsatkichlar nomi	01.03.22		01.03.23		O'zgarishi, foizda
	mlrd.so'm	ulishi,foizda	mlrd.so'm	ulishi,foizda	
Jami kreditlar	327 180	100%	397 637	100%	22%
Sanoat	118 128	36,1%	126 838	31,9%	7%
Qishloq xo'jaligi	35 597	10,9%	43 841	11,0%	23%
Qurilish sohasi	9 125	2,8%	10 297	2,6%	13%
Savdo va umimiy xizmat	26 361	8,1%	29 127	7,3%	10%
Transport va kommunikatsiya	27 639	8,4%	30 186	7,6%	9%
Moddiy va texnika ta'minotini rivojlantirish	3 607	1,1%	3 834	1,0%	6%
Uy-joy kommunal xizmati	2 065	0,6%	1 893	0,5%	-8%
Jismoniy shaxslar	70 982	21,7%	105 189	26,5%	48%
Boshqa sohalr	33 675	10,3%	46 431	11,7%	38%

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti www.cbu.uz

Xususan, 2023-yilda korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 397,6 trln. so'm yoki 2022-yildagiga nisbatan 22 foiz ko'p kreditlar ajratildi (2- jadval). 2023-yilda, tijorat banklari tomonidan sanoat tarmog'iga jami ajratilgan kreditlarning 31,9 foizi to'g'ri kelgan, keyingi o'rinni qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelib jami



kreditlarning 11,0 foizi berilgan. Berilgan kreditlarning 7,6 foizi transport va kommunikatsiya tarmog'iga to'g'ri kelgan. Jismoniy shaxslar tomonidan esa ajratilgan kreditlarning 26,5 foizi foydalanilgan. Bu ko'rsatkich oldingi 2022-yilga nisbatan 48 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Shundan, 46,4 trln. so'mi soha subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022-yildagiga nisbatan 38 foizga oshdi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, so'ngi yillarda o'z ish faoliyatlarini yangidan boshlayotgan yoki tadbirkorlik subyektlarni moliyaviy qo'llab- quvvatlashni kengaytirish maqsadida ATB "Mikrokredit bank"i tomonidan ajratilayotgan kreditlar alohida o'rin egallagan.

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan ushbu mikrokreditlar va mikrolizing xizmatlari, ish faoliyatini yangidan boshlayotgan tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklariga o'z bizneslarini yo'lga qo'yishlari uchun qo'shimcha imtiyozlar yaratilishi bilan birga, yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga olib keldi. Biroq, tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davr mobaynida tijorat banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar tarkibida mikrokreditlar salmog'i, ushbu davr mobaynida bundan yuqoriroq suratlarda o'sishi mumkin edi. Buni biz quyidagi omillar bilan izohlashimiz mumkin.

Tijorat banklari yangidan ish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlashga shoshilmaydilar, sababi ularga ajratiladigan mikrokredilar kam daromadliligi va yuqori riskka ega bo'lishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ajratiladigan mikrokreditlar uchun to'lanadigan foiz amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmaydi, bu esa, o'z navbatida, bank uchun zarar deb tushuniladi. Chunki tijorat banklari tashkil etilishiga asosan ular tijorat tashkiloti bo'lib, aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini omonatlarga qayta moliyalash stavkalaridan yuqori foizlarda jalb qiladi va kreditlarni bundan kichik foizlarda berishi bank uchun zarar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, savdo va umumiy ovqatlanishda faoliyat ko'rsatayotgan kichik va xususiy korxonalar soni so'nggi yillarda kamaygan. Ammo savdo va umumiy ovqatlanishda faoliyat ko'rsatayotgan kichik va xususiy korxonalar sonining barqarorligi saqlanib qolmoqda. Bu sohani kichik va xususiy biznes uchun jozibadorligi unga sarflangan xarajatlar qoplanish muddatining qisqaligi va nisbatan barqaror iste'mol talabining mavjudligi bilan izohlanadi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, mazkur nizom natijasida ish faoliyatini yangidan tashkil etayotgan tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kapitalar uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan kreditlar yaxshi samara bergan.

O'zbekiston Respublika Prezidenti va Hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yoki fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qancha davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan dasturlarni respublika tijorat banklari tomonidan bajarilishida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan ayniqsa byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'laridan va xorijiy kredit liniyalardan foydalanish ko'lami yil sayin ortib borgan.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklari mikromoliyaviy xizmatlar bozori faoliyatini takomillashtirishi va zamonaviy usullarining oqilona qo'llanilishi kichik korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning, eng avvalo, jamiyatni ijtimoiy va siyosiy yangilash, shuningdek aholi farovonligini va bandligini oshirish, ichki iste'mol bozorini milliy mahsulotlar bilan to'ldirish, ishlab chiqarishni sifat darajasiga ko'tarish va eksport salohiyatini oshirishning bosh dastagi hisoblanadi. Tahlil va kuzatishlar asosida O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirish amaliyoti va uni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Respublikamiz tijorat banklarining mikrokreditlaridan foydalanuvchi kichik biznes subyektlarining kredit to'loviga layoqatliligini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida:

- bir vaqtning o'zida joriy likvidlilik koeffitsientlari va aylanish koeffitsientlaridan foydalanishni joriy qilish lozim;
- aylanish koeffitsientlaridan foydalanishda har bir tarmoq bo'yicha aylanish koeffitsientlarining me'yoriy darajasini uzluksiz e'lon qilinishini ta'minlash zarur;
- tarmoq riskining kichik biznes sub'ektining mikrokreditlar va mikrolizing bo'yicha kredit to'loviga layoqatliligiga ta'sirini baholashni respublikamiz tijorat banklari amaliyotiga joriy qilish lozim.

2. Mikromoliyaviy xizmatlarga ehtiyojmand aholining to'liq qamrab olinishini ta'minlagan holda, mamlakatning chekka mintaqalarida nobank kredit tashkilotlari tarmog'ini ko'paytirish kerak. Zero tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ortiqcha xarajat qilib viloyat markaziga yoki poytaxtga kelishlariga zarurat tug'ilmaydi.

3. Tijorat banklari va nobank kredit muassasalaridan mikrokredit va mikrolizing olgan kichik biznes sub'ektlarining kredit yig'ma jildini shakllantirish va unga huquqiy maqom berish lozim. Buning natijasida mikrokreditlash va mikrolizing xizmati ko'rsatish jarayonidagi kredit riski darajasi pasayadi.



4. Nobank kredit muassasalarining kreditlash amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan bazani Markaziy bankning "Kredit axboroti milliy instituti" da shakllantirish yo'li bilan ular faoliyatidagi kredit riskini kamaytirishni ta'minlash lozim.

5. Tijorat banklari va nobank kredit muassasalari tomonidan beriladigan mikrokreditlarning garov ta'minotiga qo'yiladigan talablarni teng qilish va ushbu talablarni Markaziy bank tomonidan belgilanishini joriy qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni. www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. 2022 yil 17 mart. www.lex.uz

3. Лаврушин О.И. Денги, кредит, банки // Москва: Финансы и статистика, 2000. – С 16

4. Хакимов Ш.Х. Развитие микрофинансирования в Узбекистане. – Ташкент, 2005.; С.

5. Таджибаева. Д.А, Муминов. И.О. Микрофинансирование: руководство для микрофинансовых организаций.- Ташкент: МОЛИЯ, 2009. – С. 11-13

6. Vaxabov A.V. Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda bank tizimining o'rne. "Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o'rne" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent: Moliya, 2009. – 22 B.;

7. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.